



e-ISSN: 2319-8753 | p-ISSN: 2347-6710

# IJIRSET

International Journal of Innovative Research in  
**SCIENCE | ENGINEERING | TECHNOLOGY**

# INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIVE RESEARCH

IN SCIENCE | ENGINEERING | TECHNOLOGY

Volume 11, Issue 4, April 2022

**ISSN** INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INDIA

Impact Factor: 8.118

 9940 572 462

 6381 907 438

 [ijirset@gmail.com](mailto:ijirset@gmail.com)

 [www.ijirset.com](http://www.ijirset.com)

# Competent Education Is the Basis of Qualitative Compatibility between Teacher and Students

**Qoraev Samaridin Barakayevich<sup>1</sup>, Tirkashev Nodir Ilkhomovich<sup>2</sup>**

Associate Professor of Chirchik State Pedagogical Institute, Uzbekistan<sup>1</sup>

Independent Researcher, Uzbekistan<sup>2</sup>

**ABSTRACT:** The article deals with the quality of teacher-student relations on the basis of competent education. Education based on a competency-based approach addresses the challenges of comprehensive acquisition of knowledge, skills and competencies in students.

**KEYWORDS:** competence, teacher, students, approach, degree, quality, knowledge, lesson, development, personality, content.

## KOMPETENSIYAVIY TA'LIM – O'QITUVCHI VA O'QUVCHI MUNOSABATLARIDA SIFAT UYG'UNLIGINING ASOSI

**Qorayev Samaridin Barakayevich**

Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsenti,

**Tirkashev Nodir Ilxomovich**

Mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya:** Maqolada kompetensiyaviy ta'lim asosida o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarida sifat uyg'unligi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni kompleks ravishda egallashni muammolari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, o'qituvchi, o'quvchilar, yondashuv, daraja, sifat, bilim, dars, rivojlanish, shaxs, mazmun.

## КОМПЕТЕНТНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ - ОСНОВА КАЧЕСТВЕННОЙ СОВМЕСТИМОСТИ МЕЖДУ УЧИТЕЛЕМ И СТУДЕНТАМИ

**Кораев Самаридин Баракаевич**

доцент Чирчикского государственного педагогического института,

**Тиркашев Нодир Ильхомович**

Независимый исследователь

**Аннотация:** В статье рассматривается качество взаимоотношений преподаватель-ученик на основе грамотного обучения. В образовании, основанном на компетентном подходе, основное внимание уделяется проблемам комплексного приобретения знаний, навыков и компетенций студентами.

**Ключевые слова:** компетентность, учитель, студенты, подход, степень, качество, знания, урок, развитие, личность, содержание.

Respublikamizda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standarti talablarini ishlash jarayoni tayanch va fanlarga oid kompetensiyalarni tanlash, mos holda ta'lim mazmunini takomillashtirgan holda kompetensiyalarni shakllantirishni dars jarayoniga kiritish uchun ularni faoliyat shaklida berishni nazarda tutadi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi davlat ta'lim standartida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltiruvchi fanlarni o'qitishning asosiy maqsadi: o'quvchilarning mantiqiy fikrlay olish qobiliyatini, shuningdek, tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda o'quvchilarning ularga oid bilimlarini hayotga tatbiq eta olish salohiyatini rivojlantirish kabi talablar bilan boyitilishi lozim.

Ta'lim tizimiga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, kompetensiyalarni tanlash, ularni o'quvchilarda shakllantirish, o'quvchilarning kompetentligini baholash, kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvni me'yorlashtiruvchi hujjatlarni takomillashtirish kabi masalalar dolzarb.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar olgan bilimlarni bevosita kundalik hayotda qo'llashga o'rgatadigan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'limi standartlarini yaratish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish zarurati aniqlandi. Ta'lim mazmunini boyitishda amaldagi ta'lim standarti hamda kompetensiyaviy yondashuv asosidagi yondashuvlar tizimlashti-rildi. Ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali kompetentli shaxsni tarbiyalash, o'quvchilarning o'quv fanlari orqali olgan bilimlaridan kundalik hayotda uchraydigan muammolarini hal qilishga o'rgatish hamda o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni mushtarak holda rivojlantirish ta'lim samaradorligini belgilaydi[1].

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni alohida shakllantirishni emas, balki ularni kompleks ravishda egallashni taqozo etadi. Bu esa o'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch va fanga oid kompetensiyalarni tanlash hamda ularni rivojlantirish metodikasi bilan bog'liq[4].

Kompetensiyaviy yondashuv: o'quvchilarni ongli ravishda ta'lim olishga tayyorlash; ularning mustaqillik darajasini oshirish; o'quvchilarni nostandart vaziyatlarda ham olgan bilimlarini qo'llay olish kabi tamoyillarga asoslangan. Bizning g'oyamiz to'rtta aspekt: tayanch kompetensiyalar, fanga oid ko'nikmalarni umumlashtirish, amaliy fan ko'nikmalari hamda hayotiy ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Bulardan birinchisi tanlanadigan kompetensiyalar bo'lib, ba'zi kompetensiyalar boshqalariga nisbatan umumiy yoki ahamiyatliroq bo'ladi.

SHunga ko'ra ularni uchta darajaga bo'lish mumkin: tayanch kompetensiyalar – ta'lim mazmunining umumiy (metapredmet) qismiga tegishli; umumfanlar kompetensiyalari –ma'lum doiraga kiruvchi o'quv fanlari va ta'lim sohalariga tegishli; o'quv faniga oid kompetensiyalar – oldingi ikkitaga nisbatan xususiy hisoblanib, o'quv fani doirasida shakllantiriladi.

Ta'lim kompetensiyasi deyilganda, o'quvchining ob'yektiv borliqda zaruriy ravishda shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatli, samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan bilimlari, ko'nikmalari, malakalari, faoliyat tajribasi, mantiqiy fikrlashi, motivatsiyasi va mazmunan yo'naltirilgan-ligi majmui nazarda tutiladi.

O'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar asosan dars paytida shakllanganligi kabi kompetensiyalar ham dars jarayonida shakllantiriladi. SHu bois o'qitishning an'anaviy va noan'anaviy usullari asosida darsni tashkil etish texnologiyalariga qo'yilgan talablar muhim hisoblanadi. An'anaviy dars didaktik maqsadlariga ko'ra: o'quvchini mavzuga olib kirish, yangi mavzuni o'rganish va mustahkamlash, bilim va ko'nikmalarni tekshirish va korreksiyalash kabi dars turlaridan iborat bo'lib, unda o'qituvchi tomonidan markaziy boshqaruv amalga oshiriladi. Dars maqsadi uchta: ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi qismlarga ajratiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida darslarni tashkil etishda, avvalo, o'quvchini atrof-olamni o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirish, zaruriy axborotlarni izlash va uni real hayotda qo'llay olish uchun tayyorgarlik ekanini uqtirishi kerak bo'ladi. SHu asosida o'qituvchi va o'quvchining faoliyati o'zgaradi. Bunday darslar: rejalashtirish, tashkil etish, amalga oshirish va nazorat, korreksiyalash hamda analiz qilish kabi didaktik talablarga javob beradi.

Dars maqsadiga ko'ra, o'quvchilarning mazkur mavzu yuzasidan kompetent emasligi hamda ularning nimani o'rganib olishi kerakligini anglashlariga erishish talab qilinadi. Bunda qarama-qarshi faktlar, ilmiy nazariya va hayotiy voqeaning bir-biriga zid kelib qolishi kabi muammoli vaziyat tug'dirish orqali darslarni (axborotlashganlik bo'yicha – nimani o'rganimiz, nimaga o'rgatamiz; operatsion – qanday qilib o'qiyamiz; motivatsion – bu nima uchun kerak; kommunikativ – kim bilan va qayerda? kabi) tashkil qilish mumkin.

Zamonaviy dars asosida tizimli-faoliyat tamoyili yotadi. Uning maqsadi aniqlangach, metod va texnologiya, erishish vositasi, sub'yektlar faoliyati va baholash usullari hamda o'quvchilarda shakllanishi zarur bo'lgan kompetensiyalar ham ko'zda tutilishi zarur[2].

O'qituvchi o'quvchilarni ilhomlantirgan holda o'qish jarayonini pinhoni ravishda boshqarishi kerak. Bunda Uil'yam Uordning aytgan so'zlari «O'rtacha o'qituvchi bayon qiladi. YAxshi o'qituvchi tushuntiradi. Mashhur o'qituvchi ko'rsatib beradi. Buyuk o'qituvchi ilhomlantiradi», degan aqidasi amal qilish ko'zda tutiladi, ya'ni dars jarayoni o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi.

O'quvchilar muayyan muammo bilan shug'ullana boshlasalargina, ularda tanqidiy fikrlash paydo bo'ladi. SHu bois o'quv jarayonining boshlang'ich nuqtasi hisoblangan, biror vaziyat yoki hodisaga tegishli bo'lgan eng muhim

savol, bu hodisa qanday muammoni vujudga keltirishini anglatadigan savoldir. Faqatgina muayyan muammo bilan kurashib, murakkab vaziyatdan chiqish uchun o'zining shaxsiy yo'lini izlagandagina o'quvchi fikrlaydi[5].

O'quvchining mantiqiy, tanqidiy fikrlashi esa mustaqil fikrlashning asosi va tarkibiy qismidir. SHuning uchun ham ularni tanqidiy fikrlashga o'rgatish jarayonini tizimli tashkil etish ulardagi kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga imkon yaratadi. Ayni paytda o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatishning asosiy vazifasi bugungi demokratik jamiyatda har bir fuqaroning o'z oldida turgan muammolarini hal qilish qobiliyatiga, faol fuqarolik kompetensiyasiga ega bo'lishni taqozo etadi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim mazmuni tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish, o'quvchi kompetentligini rivojlantirish orqali hayotga tayyorlashni nazarda tutadi. Bunda darsda qo'llaniladigan texnologiyalar ham asosiy omillardan hisoblanadi. Buyuk xitoy faylasufi Konfutsiy aytganidek: «Odamlarga bitta baliq bersangiz, ular bir kun to'q bo'lishadi, ularga baliq ovlashni o'rgatsangiz bir umr to'q bo'ladi».

Pedagogikada ko'plab ta'lim texnologiyalari mavjud bo'lib, ular zamonaviy, an'anaviy, shaxsga yo'naltirilgan, o'quvchi faoliyatini jadallash-tirishga asoslangan hamda fanga tegishli xususiy texnologiyalardir.

Ta'lim texnologiyalari o'quvchi kompetentligini rivojlantirishda bir qator imkoniyatlarga ega. Dars turidan qat'i nazar undagi muammo bu o'quvchini ijodiy fikrlashga, faollashtirishga, kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. O'quvchilarni faollashtirishga asoslangan texnologiyalar ham turlicha bo'lib: o'yin; muammoli ta'lim; loyihalash; trening yoki interfaol ta'lim texnologiyalari dars maqsadi va ta'lim mazmunidan kelib chiqqan holda tanlanadi[3].

Masalan, muammoli ta'lim jarayonida o'qituvchi rahbarligida ma'lum o'quv muammosi qo'yilib, o'quvchilarga uni yechish vazifasi beriladi. Bunda ularning ijtimoiy faolligi, o'zaro muloqotga kirishishi va muammoning yechimini qidirishda matematik savodxonlik, fan texnika yutuqlaridan foydalanish kompetensiyalari shakllanadi.

Kasbga yo'naltiruvchi fanlar yo'nalishida muammoli darslarda ilmiy muammo: yangi qoida, qonun, isbotlash talab qilinadigan o'quv muammolar yoki amaliy muammoning yechimi sifatida ma'lum bilimni yangi vaziyatda qo'llash, konstruksiya yaratish, ixtiro qilish kabi masalalarga yechim topiladi.

Mavzuni mustahkamlashga oid amaliy mashg'ulotda ruchka va bo'shagan nayi, gugurt qutisi yordamida purkagich yasash; bo'shagan polietilen idishdan nasos yasash; qog'ozdan samolyot va samolyot qanoti maketini yasash; stol tennisi sharigi, futbol koptogiga burama zarba berish kabi amaliy topshiriqlar o'quvchilarning tadqiqotchilik qo'nikmalarini shakllantirish-ga xizmat qiladi.

Umuman, kasbga yo'naltiruvchi fanlar o'quv fani bo'yicha kompeten-tsiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartida: jarayon va hodisalarni kuzatish, tushunish va tushuntirish; tajribalar o'tkazish, kattaliklarni o'lchash va xulosalar chiqarish; asboblardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyalarini shakllantirishni ko'zda tutishi lozim.

Mazkur kompetensiyalarni shakllantirishda samarali bo'lgan metodlardan biri tajribalar o'tkazish bo'lib, u bir qancha: o'quv faniga qiziqtirish, o'quvchilar diqqatini faollashtirish, ularni mustaqil ishlashga o'rgatish va fanga oid kompetensiyalar shakllanishiga ko'maklashish kabi didaktik funksiyalarni bajaradi.

#### REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712 Farmoni.
2. Хуторской А.В. Образовательные компетенции и методология дидактики. [Электронный ресурс] //Персональный сайт –22.09.2016 г. – <http://khutorskoy.ru/be/2016/0803/>
3. Сериков В.В. Компетентностная модель: от идей к образовательной программе // Педагогика, 2003. -№ 10. -С. 10;
4. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. – М.: ИЦ ПКПС, 2004. - 42 с.;
5. Махмудов М.Х. Таълимни дидактик лойихалашнинг назарий асослари. Пед.фан.док...дисс.. Т., 2003.-342 б.



**INNO SPACE**  
SJIF Scientific Journal Impact Factor  
**Impact Factor: 8.118**



**ISSN** INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INDIA



# INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIVE RESEARCH

IN SCIENCE | ENGINEERING | TECHNOLOGY

 **9940 572 462**  **6381 907 438**  **ijirset@gmail.com**



[www.ijirset.com](http://www.ijirset.com)

Scan to save the contact details